



**ART TERAPIYANING SAHNA TURI YORDAMIDA NUQSONLI BOLALAR  
NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

**Andijon davlat pedagogika instituti**  
**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi**  
**1-kurs magistrantlari**  
**Abdullayeva Kamola Erkin qizi**  
**Abdulmuhtorova Mohlaroy Bahtiyorjon qizi**

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226600>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqda nuqsonli bolalar tarbiyalanuvchilarning nutqini sahna terapiyasi yordamida rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishi haqida ma'lumot beradi. Sahna nutqi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy, ma'daniy intellektual fazilatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi haqida axborot beradi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, sahna terapiyasi, nutqdagi nuqsonlar, orfoepiya, qo'g'irchoq, sahna nutqi, mashqlar, nutq terapiyasi amaliyoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “ O'zbekiston – 2030” harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qilindi. Unda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash bo'yicha farmoyish qabul qilindi. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi

“Art terapiya” art – san'at, therapy –davolash, san'at yordamida davolash degan ma'noni anglatadi. Uning bir necha asosiy turlari mavjud. Shu jumladan, sahna turining nuqsonli bolalar nutqini rivojlanishi uchun ahamiyati katta.

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Teatr bu yunoncha (tiyation) so'zidan olingan bo'lib tomoshaxona degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli teatri bu qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, ayiqcha, quyoncha va boshqa qahramonlarni jonli ravishda ko'radilar.

*Jumladan nutqida nuqsonli bolalarda sahna nutqi va uning ahamiyati shundan iboratki* teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Shu sababli sahna ijrosida bolani, nutqida nuqsonli bolalarni qatnashirib, sahna terapiyasidan foydalanib, inson ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatish imkoni mavjud. Nutqning uyg'unligini shakllantirish, so'zlarlarni mazmunli va mantiqiy tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolaning nutq tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Shuning uchun izchil nutqning shakllantirishning yangi maxsus uslubiy usullari va vositalarini izlash muhimdir. Sahna nutqi dramatik asarni teatrlashtirishning eng muhim vositasidir. Sahna nutqi nutqida muammosi bor bolalarga chiroyli hayollar, g'oyalar, fikrlar va his tuyg'ularni va nutqidagi nuqsonlarni kamaytirish imkonini beradi.

*Sahna nutqining asosiy elementlari :*

- Adabiy til me'yorlariga rioya qilish
- Tog'ri talaffuz
- Hissiyot detirinaj



Adabiy tilning me'yorlari - umumiy qabul qilingan til vositalaridan foydalanish, tovushlar, urg'u, intonatsiya so'zlar va ularning shakllari.

To'g'ri talaffuz ya'ni "Orfoepiya" atamasi yunonchada "to'g'ri" degan ma'noni anglatuvchi "ortohs" va "nutq" deb tarjima qilingan "epos" so'zlaridan tashkil topgan. Shunga ko'ra, Orfoepiya "to'g'ri nutqni" o'rganadigan, fan bo'lib talaffuz me'yorlarini, ularning asoslanishi va tilda mustahkamlanishini belgilaydi.

Hissiyot detirina - bu his qilish, emotsiyani shakllantiradi va bu bolada nutqiy qobiliyatni oshiradi.

*Nutqida nuqsoni bor bolalarda sahna nutqining asosiy xususiyatlari:*

Sahna nutqining asosiy xususiyatlari balandlik, jarangdorlik, ovoz balandligi, shuningdek to'g'ri nafas olish texnikasi, talaffuzning ravshanligidir. To'g'ri nafas olmasdan, to'g'ri va chiroyli gapirish mumkin emas. Shuning uchun nutq so'zlashdan oldin nafas olish mashqlarini bajarish kerak. To'g'ri nafas olish texnologiyasini tushunmasdan natijaga erishish mushkul. Nutq texnikasi nutqida nuqsoni bor bolalar nutq qobiliyatini tezda egallashga yordam beradi. Buni nafaqat mashg'ulotlarda, balki uyda mashq qilish ham muhimdir. Bu tarbiyalanuvchiga tezroq yaxshi natijaga erishish imkonini beradi. Nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish uchun darslarning tarkibiy qismlari til burmalarining talaffuzi, intonatsiyalarini to'g'ri tartibga soluvchi matnlarni o'qish, nafas olish mashqlaridir.

1. Harakatlarni o'z ichiga olgan mashqlar: bular to'g'ri nafas olishni amalga oshirishni osonlashtiradi, to'g'ri nafas olish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Qorin bo'shlig'i mushaklarini faollashtiradi.

2. Nafas olishni rivojlantiruvchi mashqlar, bunda tananing turli pozitsiyalari: yotish, o'tirish, turish. Qorin bo'shlig'i mushaklarining faollashuvini kuzatish, uning ritmini tartibga solishni o'rganishga yordam beradi

3. Kundalik hayotda bajariladigan mashqlar. Bunda asosiy maqsad o'qish paytida nafas olishni mashq qilishdir.

*Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Art terapiyaning sahna turi nutqida nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish uchun quyidagilarni qamrab oladi: mushakning erkinligi va halqum faolligi, ovozning chidamliligini oshirish, bu turli psixofizik stresslar ostida tovushni saqlab qolish imkonini beradi. Sahnada qo'g'irchoqlarga ovoz berish jarayonida o'zini qiynayotgan muommoli vaziyatdan chiqish imkonini, nutqidagi muammoli talaffuzni muntazam mashqlar vositasida nutq ravonligiga erishishga yordam beradi.*

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH. M. Mirziyoyev. "O'zbekiston-30" strategiyasi to'g'risida. Toshkent shahri, 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son

2. M. Artikova – ART-TERAPIYA // O'quv – uslubiy majmua, Andijon 2023. 4-5 b.

2. Экономика и социум" №12-2(79) 2020 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) С.599

3. Болибеков А.А., Эгамбердиева М.Г. Совместная работа воспитателя и логопеда дошкольного учреждения по устранению речевых нарушений у детей. // Вестник науки и образования. 2020. №10(88).

4. С. 60-62. URL: <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/88/VNQ-10-88-III-.pdf> (Дата обращения 12 ноября 2020 г.)

5. Kayumova D. F Bolalar nutqini rivojlantirishda Art Terapiyaning o'rni mehdunarodiy nauchiy jurnal №13 (100), chasty 1, 2023

6. Елсакова. А. Н, Лисовская. Н.Н, Соколова И В, Использование инновационных технологий в работе учителя логопеда// Педагогика: традиции и инновации: материалы междunar. Науч. конф (г. Челябинск июнь 2014 г) Челябинск: Два комсомольца, 2014. – С. 33-34.

7. Силиванова Л В, Кондратьева С Ю, Игры с песком в работе логопеда// Логопед с детском саду. 2008- №3- С 38-41.